

**BARQAROR IQTISODIY O'SISH KONTSEPSIYALARINI
TRANSFORMATSIYALASHUVI VA AMAL QILISH XUSUSIYATLARI**

Jiyanov O'ktam Panjiyevich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o'qituvchisi

Tel.: №: +998946626187; e-mail: uktam.jiyanov87@gmail.com

Abstract

The article analyses tendencies of changes of main macroeconomic ratios of social-economic development of Uzbekistan. Econometric models for forecasting of number of population, GDP volumes and other ratios of economic growth of the country are designed. The article also proposes forecasted ways of changes in macroeconomic ratios in the future.

Keywords: economical development, economical growth, macroeconomical rates, econometric models.

Iqtisodiyotda modernizatsiya jarayonlari sodir bo'layotgan o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun o'rta muddatli istiqboldagi pirovard vazifa – barqaror iqtisodiy o'sishni tarkibiy modernizatsiyalash bilan uyg'unligini ta'minlaydigan iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishdan iborat. Buning uchun cheklangan ishlab chiqarish omillarini kupaytirishga emas balki yalpi omillar samaradorligi, ya'ni o'lardan foydalanish samaradorligini oshirishga asoslangan yangi iqtisodiy o'sish modelini shakllantirish lozim.

Iqtisodiyotdagagi tarkibiy islohotlar odatda texnologik revolyutsiyalar va iqtisodiy inqirozlar ta'sirida sodir bo'ladi. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlaridagi tarkibiy islohotlar tajribasi bizning mamlakatimiz amaliyoti uchun nazariy va amaliy jihatdan alohida ahamiyatga ega. Tarkibiy islohotlar qisqa (3-5 yil) muddatlarda quyidagi samaralar olish imkonini beradi: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish; yangi yuqori samarali ish joylarini yaratish imkonini beradi; uzoq muddatli (20 yillik) davrda olinadigan samara barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, infliyatsiyani pasayishi, taraqqiy etgan mamlakatlardagi turmush darajasi bilan yaqinlashish, ishlab chiqarish darajasini ba'zi tebranishlari va iste'mol ko'rinishida bo'ladi.

Iqtisodiyotni o'z-o'zini tartibga solish bozor mexanizmi iqtisodiyotni muvozanat holatidan doimo og'ib turishini ko'zda tutadi. Iqtisodiyot tarkibida ichki va tashqi omillar ta'sirida muntazam o'zgarishlar sodir bo'lib, bozor uni mustaqil hal eta olmaydi. Iqtisodiy tizimning beqarorligi davriy krizislар orqali namoyon bo'ladi. Barqaror iqtisodiy rivojlanish davlat tomonidan boshqarishni samaradorligi tufayli ta'minlanadi. Davlat iqtisodiy siyosat yordamida ishlab chiqarish omillari va ishlab chiqarish quvvatlari o'sish sur'atiga ta'sir ko'rsatadi. Barqaror rivojlanish bozor bilan davlat boshqaruvi muvozanati asosidagina sodir bo'lishi mumkin. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi bozorning salbiy oqibatlarini bartaraf etishning yagona zarur dastagidir. Davlatning muhim vazifasi iqtisodiy samaradorlik bilan ijtimoiy adolat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdir. Ushbu muvozanat barqaror iqtisodiy rivojlanishning zaruriy shartidir. Davlatni bosh vazifasi bir vaqtning o'zida aholi turmush darajasini oshirish va iqtisodiy

o'sishning barqarorligini ta'minlashdir. O'z navbatida barqarorlik iqtisodiyotda muvozanatni va iqtisodiy jarayonlarni samarali tartibga solishni shartidir.

Iqtisodiyotda amalga oshiriladigan tarkibiy islohotlar investitsion faoliyat shart-sharoitlarini yaxshilaydi, iqtisodiyotga kapital jalb etishni rag'batlantirishga, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga va uni sifatini oshirishga olib keladi. Milliy iqtisodiyotdagi ushbu jarayonni quyidagi tartibda va mantiqiy ketma-ketlikda ko'rsatish mumkin:

- iqtisodiy erkinlikni kuchaytirish;
- ijtimoiy va ma'muriy islohotlar;
- qulay investitsiya muhitining shakllanishi va jozibadorligini oshirish;
- ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etishning jadallahuvi;
- barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash.

Milliy iqtisodiyotni barqaror sur'atlarda rivojlanishi uchun uning oqilona tarkibini shakllantirish zarur. Iqtisodiyotning oqilona tarkibini shakllantirish davlat va korporativ tizimning ustuvor maqsadi hisoblanadi, chunki bozor tizimi ushbu vazifani maqsadli, izchil, bosqichma-bosqich shakllantira olmaydi. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi ko'rsatishicha, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan faol tartibga solish sharoitidagina iqtisodiyotning oqilona tarkibini shakllantirish mumkin.

Tarkibiy siyosat va iqtisodiyot sektorlari o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud bo'lib, tarkibiy o'zgarishlar davlat tomonidan olib borilayotgan aktiv va passiv tarkibiy siyosat tufayli turli natijalarga olib kelishi mumkin. Tarkibiy siyosat olib borishni faollik darajasiga qarab 2 turga ajratish mumkin:

1. Tarkibiy o'zgarishlarga olib keluvchi aktiv tarkibiy siyosat;
2. Passiv tarkibiy siyosat: samarali (bozor tartibga soladi) va samarasiz iqtisodiy o'sish.

Passiv tarkibiy siyosat davlat tomonidan tarmoqlar, faoliyat turlari, mintaqalar o'rtasida kapital va resurslarning bozor mexanizmlari ta'sirida erkin harakatlanishi va raqobat muhitini shakllantirish uchun qulay huquqiy bazani yaratish bilan cheklanadi. Kapital va resurslarning bir tarmoq, faoliyat turlari, mintaqalardan boshqasiga "oqib o'tishi" bilan bog'liq tarkibiy o'zgarishlar foyda normasi o'rtasidagi farq tufayli yuz beradi.

Passiv tarkibiy siyosat uzoq davom etadigan va sezilarli ijtimoiy yo'qotishlar bilan bog'liq holda kechadi. AQSH iqtisodiyotining tarkibi passiv tarkibiy siyosat natijasida shakllanganligi tufayli ko'pincha "amerikacha modelъ", deb ham yuritiladi.

Demak, passiv tarkibiy siyosat quyidagi hususiyatlarga ega bo'ladi:

- davlatning tarkibiy siyosatni amalga oshirishdagi passiv ishtiroki (an'anaviy iqtisodiy va huquqiy usullardan foydalanish);
- tarkibiy o'zgarishlarni joriy etishda bozor mexanizmlariga suyanish (tarmoqlar va sohalar faoliyatida turlicha foyda normasi mavjudligi tufayli kapitallar oqimi, iqtisodiyot tarkibining o'zgarishi);
- amalga oshirish muddatining uzoqligi va davomiyligi;
- ijtimoiy muammolarning chuqurlashuvi va boshqalar.

Aktiv tarkibiy siyosat ("yapon modeli") iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtirish maqsadida davlat tomonidan keng qamrovli dastaklarning qo'llanishi bilan izog'lanadi va quyidagi hususiyatlarga ega bo'ladi:

- iqtisodiyotning progressiv tarkibini shakllantirishda davlatning aktiv ishtiroki;
- iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar jarayoning jadallahsuvi;
- iqtisodiyot tarkibining ayrim elementlarini baholashda prognoz ko‘rsatkichlaridan foydalanish;
- istiqbolli va istiqbolsiz tarmoqlar, ishlab chiqarish turlari hamda mintaqalarni aniqlash;
- ustuvor tarmoqlar va ishlab chiqarishni belgilash;
- iqtisodiyot tarmoqlarini qayta shakllantirish maqsadida davlat dasturlari va rejalarini ishlab chiqish;
- alohida tarmoqlar, mintaqalar, ishlab chiqarish, biznesning huquqiy-tashkiliy shakllarini qo‘llab-quvvatlashda selektiv yondashish va boshqalar.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy islohotlarning milliy iqtisodiyot tarkibini jiddiy o‘zgartirish, modernizatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgandir. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, “...Biz uchun asosiy vazifa – ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzlusiz yangilab borish, doimiy ravishda ichki imkoniyat va zaxiralarni izlab topish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirishdan iborat bo‘lishi zarur”.

O‘zbekiston mustaqillik yillarida o‘rta daromadli mamlakatlar guruhining quyi segmentidan joy oldi. Keyingi vazifa 2030-yilga qadar o‘rta daromadli mamlakatlarning yuqori segmentidan joy olish hisoblanadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra tarkibiy islohotlar milliy iqtisodiyotning tarkibida 2030-yilga qadar xizmatlar ulushini 55.0% gacha, qayta ishlash sanoatini 22.0% gacha oshirish imkonini beradi. Bunda rasmiy bandlik ulushi 68.5% ga qadar ortadi.

“Bu yo‘lda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish hisobidan sanoatni jadal rivojlantirish asosida yalpi ichki mahsulotda uning ulushini 2015 yildagi 33.5% dan 40% ga yetkazish, qishloq xo‘jaligi ulushini esa 16.6% dan 8-10% ga kamaytirish, energiyani tejaydigan zamонавиу texnologiyalarni keng joriy etish evaziga yalpi ichki mahsulot uchun sarflanadigan energiya xajmini taxminan 2 barobar qisqartirishga erishmog‘imiz kerak.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 2016-2030 yillarda 2 barobar ko‘payishiga erishish uchun o‘rtacha yillik o‘sish sur’atlari 4.8% darajasida bo‘lishini ta’minlash zarur. Agar keyingi 11 yil ichida bu ko‘rsatkich 8% dan yuqori bo‘lib kelganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu vazifani amalga oshirish uchun mustahkam asos va zamin borligi yaqqol ayon bo‘ladi.

Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatmoqdaki, yuqori qo‘sishma qiyomatga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish natijasida 2030 yilda, yangi turdagи tovarlar tayyorlashni o‘zlashtirish asosida neft’-gaz-kimyo sohasida mahsulot ishlab chiqarish xajmi 3.2 barobar, rangli metall mahsulotlari 2.2 marta, qora metaldan tayyorlanadigan buyumlar 2.3 karra, kimyo sanoati mahsulotlari, jumladan, mineral o‘g‘itlar 3.2 barobar ko‘payishi mumkin.

Zamonaviy texnologiyalar asosida paxta tolasini va meva sabzavot mahsulotlarini chuqur qayta ishslash, tashqi va ichki bozorda talab yuqori bo‘lgan tayyor, ekologik toza to‘qimachilik va yengil sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish xajmini 2030-yilda 5.6 marta, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishslash xajmini esa 5.7 karra oshirish imkonini beradi”.

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra O‘zbekiston iqtisodiyotini 2030-yilgacha rivojlantirish manbalarini quyidagilardan iborat bo‘lishi prognoz qilinmoqda:

1. Barqaror va unumdorli ishchi o‘rinlarini yaratish. Hozirgi vaqtida investitsiyalar tarkibida kapital sig‘imkorligi va rentabellik darajasi yuqori tarmoqlar (yoqilg‘i energetika, metallurgiya va kimyo sanoati) ustuvorlik qilmoqda. Ushbu tarmoqlar bandlik darajasini miqdor va sifat jihatdan kengaytirish imkoniyatiga ega tarmoqlar hisoblansa-da, ularda yaratilayotgan ish o‘rnlari soni ishchi kuchi miqdorining o‘sish sur’atlarigi mos kelmaydi. Ish o‘rnlarini yaratishning muhim manbai kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hisoblanadi. Ammo qo‘silgan qiymat yaratish nuqtai nazaridan ushbu sektorda bandlikning mehnat unumdorligi nisbatan past hisoblanadi. 2030-yilga borib O‘zbekiston aholisi 37.3 million kishiga yetishi prognoz qilinmoqda. Bunda aholi tarkibida mehnatga layoqatli aholi ulushi ortib boradi. Xom-ashyoga ixtisoslashgan tarmoqlarda asosiy fondlarning jamg‘arilishi mehnat resurslaridan to‘liq, samarali foydalanish imkonini bermaydi va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlay olmaydi.

2. Iqtisodiy o‘sish “sifati”ni oshirish. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish barqaror sur’atlarda bo‘lsada, uning “sifati” resurslardan foydalanish samaradorligi nuqtai nazaridan pastligicha qolmoqda. Ijtimoiy mehnat unumdorligining pastligi va yalpi ichki mahsulot resurs sig‘imkorligini yuqoriligi milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini sezilarli darajada cheklab qo‘yadi.

3. Xalqaro savdoning o‘zgarayotgan modellariga moslashishi. Oxirgi yillarda eksportning mamlakat yalpi ichki mahsulotining o‘sish sur’atlaridagi ulushi sezilarli qisqardi. Iqtisodiy o‘sish ustun darajada ichki talab hisobidan ta’minlanmoqda. Jahon iqtisodiyoti o‘sish sur’atlarining pasayib borish tendensiyasiga egaligi, yalpi talabning qisqarishi va jahon tovarlar bozori kon'yukturasi narxlarining o‘zgaruvchanligi sharoitida eksportni o’stirish va importni optimallashtirishning yangi manbalarini izlab topish zarur.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojanishini chuqur tahlil etish quyidagilar o‘rtta va uzoq istiqbolda milliy iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘lishini prognozlashtirish imkonini bermoqda:

- ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnolgik jihatdan yangilash;
- ishlab chiqarishning resurs (kapital, energiya, material, mehnat) sig‘imkorligini pasaytirish;
- xomashyo, yarim fabrikatlar bilan tugallangan, tayyor qo‘silgan qiymatni o‘zida mujassamlashtirgan iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish o‘rtasidagi nisbatni yuqori texnologiyali tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga o‘zgartirish;
- investitsiyalash jarayonlarini (kengaytirilgan takror ishlab chiqarish) faollashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- korxona tarmoqlarining texnologik yaxlitligini kuchaytirish, ishlab chiqarishning tugallangan tsiklini ta’minlash.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston raqamlarda. Statistik to‘plam. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2022.
2. O‘limasov A., Vaxabov A. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2014 y.

3. Кузнец С. Современный экономический рост: результаты исследований и размышлений. Нобелевская лекция. // Нобелевские лауреаты по экономике: взгляд из России. / Под ред. Ю.В.Яковца. – СПб.: Гуманистика, 2003.
4. Mensch G. Stalemate in Technology – Innovations Overcame the Depression. – New York: Ballinger Publishing Company, 1979. – 274 p.
5. Вахабов А.В. Ўзбекистон иқтисодиётини модернизациялаш ва таркибий ўзгаришларни амалга ошириш – барқарор иқтисодий ўсиш омили сифатида. Ўзбекистон иқтисодиётининг барқарорлиги ва мутаносиблигини мустаҳкамлаш – бугунги куннинг устувор вазифаси. Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2009 й. сентябрь. 6-б.
6. Центр экономических исследований. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. – Т., 2021. – 229 б.
7. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати, 2021 йил. – 239-б.